

17-mavzu: "Filipok". Hikoya (Lev Tolstoy)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: o'quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, o'quvchilarga ifodali o'qishni o'rgatish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarga bilim olish uchun intilish, harakat qilish kerakligini, yurtimizda yosh avlodning bilim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilganligini va bu imkoniyatni qadrlash kerakligini tushuntirish.

c) rivojlantiruvchi: O'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikma va malakalarini, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, "Aqliy hujum", "Klaster" usuli, "Kim hozirjavob?", "Topib o'qi!" ta'limiy o'yinlari.

Dars jihozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

Salomlashish. O'quvchilarni darsga hozirlash. Ma'naviyat daqiqasi o'tkazish

II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "Yaxshilik" hikoyasi. O'quvchilar hikoyani ifodali o'qib, mazmunini qayta hikoyalab beradilar.

"Aqliy hujum" usuli.

1. Fazliddinning o'rtog'i kim?

2. Ular kimni ko'rib qolishdi?

3. Fazliddin Nabiga nima deb maqtandi?

4. Fazliddin nima uchun noqulay ahvolga tushib qoldi?

5. Normamat bobo unga nima degan edi?

III. Yangi mavzu bayoni.

Bugungi mavzu e'lon qilinadi: "Filipok" hikoyasi. Hikoya muallifi Lev Tolstoy haqida ma'lumot beriladi.

Lev Tolstoy

- Lev Tolstoy - bolalar uchun asar yozish har bir qalamkashning fuqarolik burchi deb bilgan yetuk ijodkor. U bolalar savodli bo'lishlari uchun ularga atab "Yangi alifbe" va "Rus tili o'qish kitobi"ni ishlab chiqqan. Uning "Bog'bon va bolalar", "Bolalik", "Odamga qancha yer kerak", "Arslon bilan it", "Mo'ysafid olma ekdi", "Uch ayiq", "Filipok" asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan.

Yangi mavzu o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Lug'at ishi.

Hurdi – vovulladi

Gavjum – odam ko'p bo'lgan

"Filipok" hikoyasi o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi.

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

O'quvchilar qo'llarini yomg'ir yog'ayotgandek qarsillatadilar. So'ng qor, do'l yog'ishi va quyosh chiqishi harakatlarini bajaradilar

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

"Kim hozirjavob?" o'yini.

1. Filipok kim?

2. U qanday bola?

3.Sizningcha,Filipok to`g`ri ish qildimi?

4.Nima deb o`ylaysiz, bilim olish qanchalik muhim?

5.Bilim olish uchun nimalar zarur,deb o`ylaysiz?

"Topib o`qi!" mashqi.

O`quvchilar hikoyadan Filipokning maktabda nimalar qilgani haqidagi gaplarni topib o`qiydilar.

"Tinglang!" O`quvchilar musiqa tinglaydilar va darslikdagi savolga javob beradilar.

Mashq daftar bilan ishlash.


1-topshiriq. Bo`sh kataklar ichiga berilgan harflardan mosini yozib, maqolni o`qing!

Maqol: O`qimagan shu damda,

Turtinar har qadamda.

2-topshiriq. "Kim chaqqon?" o`yini. Ortiqcha harfni toping.O`quvchilar berilgan jadvaldan ortiqcha harfni topib, belgilaydilar.

3-topshiriq. Qaysi birining jufti yo`q?



Kartoshkaning jufti yo`q.

4-topshiriq. Katak'larga harflarni shunday yozingki, so`zlar bo`yiga ham, eniga ham bir xil o`qilsin! O`quvchilar bo`sh kataklarga harflarni yozib, so`zlarni hosil qiladilar.

V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.

Savol-javob o`tkaziladi.

–Maktab qanday joy?

–Siz maktabingizni yaxshi ko`rasizmi?

VI.Uyga vazifa berish. Hikoyani ifodali o`qing.

18-mavzu: "Dum-dumaloq qo`ng`iz". Hikoya (Aziz Abdurazzoq)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, o`quvchilarga ifodali o`qishni o`rgatish.

b) tarbiyaviy: o`quvchilarga tabiatdagi jonivorlarga ozor bermaslikni, ularga g'amxo`rlik qilishni o`rgatish, o`quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

c) rivojlantiruvchi: O`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, "Aqliy hujum", "Klaster" usuli, "Kim hozirjavob?" ta'limiy o`yinlari.

Dars jihozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

O`quvchilarni darsga hozirlash.